

## **XORIJIY RAYHON NAVLARINI MAHALLIY NAVLAR BILAN QIYOSIY O'RGANISH**

**Mahammadjonova O‘g‘iloy Madaminjon qizi**

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti

**Arzibayeva Sevara Boburjon qizi**

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolamizda xorijiy rayhon navlarini mahalliy navlar bilan qiyosiy o‘rganib hozirga iqlim sharoitiga mos, vegetatsiya davri uzun, ko‘p bargli, xushbo‘y xidli, kasalliklarga chidamli yangi rayhon navlarini yaratish uchun boshlangich na’munalar tayyorlash.

**Kalit so‘z:** rayhon, urug‘, nav, suv, par, ildiz, havo, tuproq, kasallik, shifobaxsh.

**Annotation.** In this article, we compare foreign basil varieties with local varieties and prepare initial samples for the creation of new basil varieties that are suitable for climate conditions, have a long growing season, have many leaves, are fragrant, and are resistant to diseases.

**Keywords:** basil, seed, variety, water, feather, root, air, soil, disease, healing.

**Аннотация.** В данной статье мы сравниваем иностранные сорта базилика с местными сортами и готовим исходные образцы для создания новых сортов базилика, подходящих для климатических условий, имеющих длительный вегетационный период, многолистных, ароматных, устойчивых к болезням.

**Ключевые слова.** базилик, семя, сорт, вода, перо, корень, воздух, почва, болезнь, исцеление.

**Kirish.** O‘zbekiston o‘simlik dunyosi juda boy va rang-barangdir. Mamlakatning boy o‘simlik dunyosida olti mingdan ortiq turli xil o‘simliklar mavjud, ular orasida dorivor o‘simliklar ham bor. Bunday o‘tlar ekologik toza bo‘lib oziq-ovqat, aromatik va farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun xom ashyo sifatida ishlatiladi. O‘zbekistonda eng keng tarqalgan dorivor o‘simliklar rayhon (bazilik), kashnich (koriander), arpabodiyon, yalpiz, sebarga hisoblanadi.

Rayhonning inson salomatligiga ijobiy ta’sirlari – Rayhondagi katta miqdorda mavjud bo‘lgan foydali shifobaxsh vitaminlar erkaklarning ham ayollarning ham peshob yo‘llari shamollahsh kasalliklarini davolashda asos bo‘lib xizmat qiladi. Emizikli onalarda sut miqdorini ko‘paytirishda yangi uzilgan rayhon barglaridan damlangan choy ichish ajoyib foydali vositadir. Bundan tashqari rayhon inson organizmi barcha a’zolarida qon aylanishini yaxshilaydi, kishi sog‘lig‘ini mustahkamlaydi.

Rayhon ajoyib peshob haydovchi vositadir, ortiqcha peshob kislotasini chiqarib yuboradi, bu ko‘kat paydo bo‘layotgan kichik toshlarni eritib, og‘riqni pasaytiradi. Bundan tashqari, uni muntazam iste’mol qilish kishida peshob yo‘llari tizimi faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

**Tadqiqot materiallari va metodologiyasi.** Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarilishi rejalashtirilgan

- Xorijiy rayhon navlari olib kelinadi
- Ularni mahalliy navlar bilan yonma yon ekip kuzatiladi
- Olingan natijalar bo‘yicha taxlil qilinadi
- O‘simlikdagi barglar soni xisobga olinadi
- Gulpoya uzunligi xisobga olinadi
- Bir o‘simlikni ko‘k massasi aniqlanadi
- Bir tup o‘simlikni urug‘ vazni aniqlanadi
- Xosildorlik o‘rganiladi (ko‘k massa va urug‘)
- O‘rganilgan natijalar bo‘yicha ijobiy belgilari xulosalar qilinadi.

**Tadqiqot natijalari.** Tadqiqot jarayonida dala tajribalari natijalarini taxlil qilishda mavjud metodik materiallar qo‘llanildi. Dala tajribalarida fenologik kuzatuvlari,

biometrik o‘lchamlar olib borildi, tuproq iqlim sharoitiga qanday moslashib borilishi hamda sabzavot ekinlarining texnik va biologik yetilishi o‘rganildi.

Asosiy ekinda rayhonning hosildorligi yuqori formalarini ajratib olish, ekish sxemalarini qiyosiy baxolash orqali yetishtirish texnologiyasini ilmiy asoslash tajribaning natijalariga o‘z tasirini ko‘rsatadi.

**Muhokama.** Biz tajribamizni Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy tadqiqot instituti sharoitida Maxxaliy, Chet-el, navlarida olib bordik. Rayhoni 60x20x1, 60x30x1 sxemada ekdik. Tajribani o‘tkazishdan maqsad dala sharoitida ekilgan horijiy va mahalliy rayhon navlarini rivojlanish fazalarini davomiyligini xamda ekish sxemalari hosildorlikka ta’siri o‘rganishdan iboratdir.

**Xulosa.** Biz olib borgan tajribalarimizdan kelib chiqib quyidagilarni xulosa qilishimiz mumkin:

1. Bosh poyani balandligi o‘rganganimizda eng yuqori ko‘rsatgich 20 aprel xolatiga o‘zimizni mahalliy nav ekanligi ma’lum bo‘ldi. Barglar soni bo‘yicha esa chet-el Germanisky navi yuqori natija ko‘rsatdi.
2. Gul shoxlar soni bo‘yicha tekshiranimizda xam 15-avgust xolatiga yuqori ko‘rsatgich o‘zimizni mahalliy nav ekanligi ma’lum bo‘ldi. Lekin shunga qaramay gul shoxlardagi gullar sonini aniqlaganimizda yuqori ko‘rsatgich chet-el Germanisky navi ekanligi aniq bo‘ldi.
3. Barg uzunligi va barg eni, gulpojani uzunligi, bir tupda ko‘k massa vazni, bir tupda urug‘ vazni xamda hosildorlik ko‘k massa, urug‘ bo‘yicha taxlil natijalarini o‘tkazganimizda xam chet-el Germanisky navi ijobjiy natija bilan yuqori ko‘rsatgichga ega bo‘ldi.

O‘sish va rivojlanish fazalarini davomiyligida xam jumladan gullah va pishishda xam maxalliy navlarga nisbatan xorijiy nav Germanisky chet-el navi 3-4 kunga ertaroq oldinda pishib yetildi.

Ushbu ma’lumotlardan kelib chiqib ekish uchun urug‘ xamda bargi berish jixatidan yuqori ko‘rsatgichga ega bo‘lgan Germaniskiy chet-el navini tavsiya etamiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.**

1. O‘zbekiston respublikasi prezidentining respublikada kartoshka yetishtirishni kengaytirish va urug‘chiliginini yanada rivojlantirish to‘g‘risidagi 2020-yil 6-maydag‘i PQ-4704- son qarori.
2. Ostonaqulov TE, Zuyev VI, Qodirxo‘jayev OK. Sabzavotchilik; Darslik. Navro‘z.- Toshkent; 2018 (2020)- 552 bet
3. Ostonaqulov. O‘zbekistonda tugunak mevali ekinlar. Monografiya; Navro‘z- Toshkent: 2020- 324 bet